

ORIENTAL JOURNAL OF EDUCATION

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/oje>**MASTER-DISCIPLE RELATIONSHIPS AND SOCIAL BENEFITS IN HOSSEIN VAIZ KOSHIFI WORKS*****Nuriddin N. Rakhmatov****Lecturer**Bukhara Dalvat Medical Institute**Bukhara, Uzbekistan**E-mail: rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru***ABOUT ARTICLE**

Key words: creative activity, reform, modernization, education system, renewal, comprehensive development.

Abstract: This article focuses on the teacher-student relationship and its social benefits in the works of Husayn Vaiz Koshifi. Information about the social benefits of these relations is also given.

Received: 06.08.22**Accepted:** 08.08.22**Published:** 10.08.22**HUSAYN VOIZ KOSHIFIY ASARLARIDA USTOZ - SHOGIRD MUNOSABATLARI VA IJTIMOIY FOYDALARI*****Nuriddin N. Raxmatov****o'qituvchi**Buxoro dalvat tibbiyot instituti**Buxoro, O'zbekiston**E-mail: rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: bunyodkorlik faoliyati, islohot, modernizatsiya, ta'lim tizimi, yangilanish, har tomonlama rivojlanish.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Husayn Voiz Koshifiy asarlarida ustoz - shogird munosabatlari va ijtimoiy foydalari haqida to'xtalib o'tilgan. Hamda bu munosabatlarning ijtimoiy foydalari haqida ma'lumotlar berilgan.

ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ УЧИТЕЛЕМ И УЧЕНИКОМ И СОЦИАЛЬНЫЕ ЛЬГОТЫ В РАБОТАХ ХОССЕЙНА ВАЙЗА КОШИФИ***Нуриддин Н. Рахматов****преподаватель**Бухарский далватский медицинский институт**Бухара, Узбекистан**E-mail: rakhmatov.nuriddin.83@mail.ru*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: деятельность, реформа, система образования, всестороннее развитие.

созидательная модернизация, обновление,

Аннотация: Эта статья посвящена отношениям учитель-ученик и их социальным преимуществам в произведениях Хусейна Вайза Кошифи. Также дана информация о социальной пользе этих отношений.

KIRISH

O‘zbekistonda ta’lim sohasida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarda ayniqsa yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 октябрь 2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi oliv ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmonining qabul qilinishi bilan ta’lim-tarbiya sohasida muhim strategik yo‘nalishlar belgilab berildi. Ana shu strategik yo‘nalishlar asosida kadrlar tayyorlash sifatini yanada yaxshilash, kasbiy jihatdan raqobatbardosh, ma’naviy jihatdan barkamol, milliy qadriyat va an’analarga sodiq, vatan tuyg‘usi bilan yo‘g‘rilgan komil insonni tarbiyalash yo‘lida bir qancha ishlar qilinmoqda. Oliy o‘quv yurtlarida kadrlarni ma’naviy barkamol, kasbiy yetuk qilib tarbiyalashda murabbiylar muhim rol o‘ynaydilar. Shuning uchun, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta ta’lim vazirligi murabbiy va ustoz-shogird masalalarini davlat darajasiga ko‘tarib, yangi lavozim tyutorlik faoliyati joriy qilindi.

Mamlakatimiz tarixida “ustoz-shogird” tizimi o‘zining uzoq tarixiga egaligini e’tiborga olib, ushbu masalalar boshqa olimlar kabi buyuk notiq va olim sifatida o‘z davrida tanilgan Husayn Voiz Koshifiy asarlarida o‘ziga xos tarzda yoritilganligini ko‘rishimiz mumkin.

ASOSIY QISM

XV asrning ikkinchi yarmida Xuroson viloyati, Sabzavor shahri, Bayhaq kentida tug‘ilgan va buyuk shoir Alisher Navoiy zamonlarida yashab o‘tgan Husayn Voiz Koshifiy taxminan 1440 yillarda tavallud topgan. Alloma o‘z zamonida shoir, voiz (notiq) va qomusiy talant egasi sifatida mashhur bo‘lgan.

Koshifiy Hirot madrasalarida tolibi ilmlarga dars bergan. Xuroson shaharlarida tarbiya, axloq-odobdan va’z aytgan. Uning qanday mohirona notiq bo‘lganini qo‘yidagi misollar orqali yana bir bor bilib olishimiz mumkin. Eron olimi Said Nafisiy Husayn Voiz nutqlarining ta’sirchanligi, jozibadorligi haqida eslab, uning o‘g‘li Fahriddin Ali Safiyming “Latoyifut tavoyib” nomli asarida shunday voqeani keltiradi: “Kunlarning birida ahli majlisga Mavlono Sayid G‘iyosiddin degan mashhur so‘z ustasi ancha kechikib kelgan. Shu majlisda Abdurahmon Jomiy ham bor ekan. Sayid G‘iyosiddin kirib kelishi bilan Jomiy undan so‘rabdi: - Nechuk kechikdingiz, Mavlono G‘iyosiddin? - Meni ma’zur tuting, ustod, - debdi G‘iyosiddin, - kelayotgan edim, masjidi jome’da Husayn Voiz nutq so‘zlayotgan ekan, shunga mahliyo bo‘lib qolibman – deb, javob berdi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki Koshifiyning nutqi o‘zining takrorlanmas va jozibadorligi bilan hammani o‘ziga jalb qilgan. Uning

so‘z san’atidagi mahoratini sezgan Navoiy uni homiylikka oladi va ustoz Abdurahmon Jomiyga bag‘ishlangan marsiyasini 1492 yil 8 noyabr kunida o‘qib eshittirishni so‘raydi.

Koshifiy tarbiya borasida “Axloqi Muhsiniy” va “Futuvvatnomai Sultoniy” asarlarida fikrini davom ettirar ekan avvalo, ustoz-shogird borasidagi munosabatlarga alohida to‘xtalib, muridning odobini sanab o‘tadi. Uning aytishicha “Murid avval shuki, u o‘z ishiga puxta bo‘lishi kerak, pok niyat bilan ish boshlashi darkor. Ikkinchidan, sobit e’tiqod bilan sulukni boshlasin. Uchinchidan, pirning nazariga tushgach, o‘z halovati va odatlaridan voz kechsin. To‘rtinchidan, ko‘rishi lozim bo‘lmagan barcha narsalardan ko‘z yumsin. Beshinchisi, eshitilishi noravo hisoblangan narsalardan qulogni berkitsin. Oltinchisi, qilinishi man etilganlardan qo‘lini tortsin. Yettingchidan, o‘z pirining muxoliflari bilan muomala-munosabatda bo‘lmasin”. [1] Shuningdek, uning aytishicha, ustoz-shogirdlik munosabatlarining mohiyati ma’lum bir tariqat yoki o‘z kasbini puxta chuqur egallashdadir. Hech bir ish ustozsiz amalga oshmagan va kimki ustozsiz bir ishni qilsa ishning asosi mustahkam bo‘lmasligini ham uqtirib o‘tadi.

Koshifiy shogirdlikning binosi nimaning ustiga quriladi degan savolga irodat ustiga deb javob beradi. Irodat nima degan savolga esa, samo (eshitish) va toatdir, deb javob beradi. Ya’ni, bunda ustoz nimaiki aytса uni jon qulog‘i bilan eshitish, chin ko‘ngil bilan qabul qilish va vujud a’zolari orqali amalda ado etishdir, deb tushuntiradi.

Shuningdek, shogird uchun foydali bo‘lgan yaxshiliklarga e’tibor qaratib, uning pok e’tiqodli bo‘lishi, maqsadiga pok va xolis xizmati orqali yeta olishi, o‘zidan rohatni tark etishi va zahmat chekishi kerakligini aytib o‘tadi.

Shogirlikning asosiy ustunlari to‘rtga bo‘linishini aytib, barcha unga rioya etishi kerakligini aytadi. Birinchisi, mard bo‘lib ishga kirishish, ya’ni futuvvat (xilvatda hamda zohirda hammaga yaxshi axloq bilan muomala qilish) yo‘lini mardona qabul qilish, zero, kirishmasdan qo‘rqib turish, orqaga surish va yo‘ldan qaytishdan ko‘ra yomonroq. Ikkinchisi - sidqidildan xizmat qilish. Uchinchisi - ko‘ngilni va tilni bir-biriga muvofiq tutish, ya’ni to‘g‘ri gapirib, to‘g‘ri amal qilish. To‘rtinchisi - nasihatga quloq solish va ustozdan eshitganini yodda tutib, unga amal qilish.

Koshifiy shogirdlik tarbiyasida uning odobiga ham katta e’tibor beradi. Ayniqsa, uning asarlarida shogird odobi bo‘yicha keltirilgan fikrlari zamонавија jamiyat taraqqiyotiga talabalarni tarbiyalashda e’tiborga molikdir. Jumladan, Voiz shogirdlikni odobini sakkizta deb aytadi. Uning aytishicha, shogird ustozining qabuliga kirganida yoki ustozni ko‘rganda, birinchi bo‘lib salom berishi kerak. Ikkinchishestozning oldida oz gapirishi va ko‘proq tinglashi kerak. Uchinchi - boshni oldinga egib turishi kerak. To‘rtinchi - ko‘zni har tomonga yogurtirmaslik, ta’voze’ bilan turish kerak. Beshinchisi - agar biron bir masala so‘ramoqchi bo‘lsa, oldin ustozidan ijozat olish kerak. Oltinchisi - ustoz javob aytganda, e’tiroz bildirmasligi kerak. Yettingchisi - ustoz oldida boshqalarni g‘iybat qilmasligi kerak. Sakkizinchisi - o‘tirib- turishda o‘zining va o‘zgalarning hurmatini to‘liq saqlashi kerak.

Sharq mamlakatlarida shogird “murid” degan nom bilan atalgan. Koshifiy murid tushunchasi istovchi, xoxlovchi degan ma’nolarini bildirishini aytib o’tadi. Shuningdek, “tariqat tilida ham “murid” deb, nafsning barcha murod (istak)laridan qutulgan odamga aytadi”, deb izoh kiritadi. Bunday odamning pirning xohishidan o‘zga xoxishi bo‘lmaydi. Koshifiyning aytishicha, muridlikning ruknlari (asoslari) oltita bo‘lib, ular farmonga itoat etmoq, rost so‘zlamoq, vafoli bo‘lmoq, nasihatga quloq solmoq, dilozorlik qilmaslik va sirni saqlamoqdir.

Shuningdek, bugungi kunda barkamol insonni tarbiyalash, ishbilarmonlik va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlash, iqtisodiyotni rivojlantirish bilan birga inson kapitalini ham tarqqiy ettirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Davlat va jamiyatning kelajagi inson kapitaliga ham bog‘liq ekanligiga O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasida alohida urg‘u berilmoxda. Ushbu masala ham bevosita Husayn Voiz Koshifiy nazarlaridan chetda qolmagan bo‘lib, “muridning sarmoyasi (boyligi)ga avvalambor, pok e’tiqod va ravshan ko‘ngil ekanligiga e’tibor qaratadilar. Chunki iqtisodiy va ijtimoiy hayotda hamda ilm olamida insonlarni kuch-g‘ayrati va bilimi poklik va halollikda ekanligiga ishorat etmoqda, ilm yo‘lida halol yo‘l bilan ilm olish, halol mehnat qilishga da’vat qilingan. Bunday munosabat bugungi kunda ilmiy ishlarni tayyorlash va yo‘qlash, ularning haqqoniyligi va sifatini ta’minlash, ilm yo‘lidagi to‘siqlarni sabr va halollik bilan yengib chiqishga ishora qilinishi bilan muhimdir. Koshifiy ilm yo‘lida har qanday shogird hamroh va hamdard bo‘ladigan bir ustozga ehtiyoj sezishini tabiiy deb biladi. Shu o‘rinda, agar kishi uch narsasini, ya’ni aqlini, vaqtini va boyligini ilm yo‘liga bag‘ishlamasa u ilgarilab keta olmasligini aytadi.

Shogird va uning maqomi bilan birga ustoz va uning maqomi to‘g‘risida Voiz Koshifiyning asarlarida uchratish mumkin. Olim garchi tariqat yo‘nalishida ustoz-shogirt munosabatlarini ko‘rib chiqqan bo‘lsada, uning ustozni shayx sifatida ko‘rishi va ustozlik yettita asosga (rukni)ga ega bo‘lishi kerakligini aytadi. Jumladan, birinchidan, ustoz shayx komil ma’rifat egasi bo‘lsin, ya’ni o‘zini tanigan bo‘lsin. Ikkinchidan, o‘tkir farosatli, odamshunos kishi bo‘lib, bir nigoh tashlash bilan muridning qobiliyatini ilg‘ay olsin. Uchinchidan, yetuk ruhiy ma’naviy quvvati bo‘lsin, toki murid (tariqat yo‘lida adashsa), unga ma’naviy madad berib, mushkulini oson qilolsin, to‘g‘ri yo‘lga solsin. To‘rtinchidan, yetarli darajada odam bo‘lsin, ya’ni hech narsaga muhtojligi bo‘lmisin. Beshinchidan, ixlosi mustahkam bo‘lib, riyo va tamani tark etsin, mol va mansab deb birovga sarg‘aymasin, egilmasin. Oltinchidan, rostlik va beg‘araz do‘stlikni shior qilsin, haq so‘zni har yerda, har qanday sharoitda aytta olsin, gapirganda ikkiyuzlamachilik qilmasin. Yettinchidan, qalbida shafqat nuri porlab tursin, murid manfaatini va umum manfaatini o‘z manfaatidan ustun qo‘ysin. Ana shunday fazilatlar egasi bo‘lgan insongina ustozlik qila olishi, muridlariga (shogirdlarga) ta’lim va tarbiya bera olish darajasiga ega ekanligi ta’kidlaydi.

Biz bilamizki har bir narsada me'yor va o'lchov bo'ladi, shunday ekan Voiz aytganidek shayxlik (ustozlik) ning ham o'z me'yorlari bo'ladi va bu buzilsa mezon o'zgaradi. Jumladan, u hamma bilan yaxshi muomalada bo'lishi, yordam qo'lini cho'zishi, bilimini ayamasligi, shogirlari qalbining to'ridan joy olishi kerak.

Alloh hech bir narsani sababsiz yaratmagan. O'z joyida shunday takrorlanmas va tartib bilan yaratganki, insoniyatning aqli ojizi yetmaydigan darajada. Qur'oni Karimning "Nahl" surasi asalarilar deb nomlanib, 68-oyatida (ey Muhammad!) Rabbingiz asalarilarga vahiy (buyruq) qildi: "Tog'larga, daraxtlarga va (odamlar) quradigan narsalarga in quringiz. 69-oyat So'ngra turli mevalardan yeb, Parvardigoringiz (siz uchun) qulay qilib qo'ygan yo'llardan yuringiz!". Ularning qorinlaridan odamlar uchun shifo bo'lgan turli rangdagi sharbat (asal) chiqur". [2] Ana shu yerda Allah yaratgan tartib va me'yorni yaqqol ko'rish mumkin. Bu borada Jaloliddin Rumiyning ham fikrlariga to'xtalamiz:

Haq ta'olo ilmi birlan bol ari,

Xona tiklaydi to'la holvalari. [3]

Tasavvur qilaylik, ona asalari o'lib qolsa butun oila tarqoq holatga keladi va parokandalikka yuz tutadi. Shuning uchun har ikki yilda ona boshi (ona asalari 5-8 yil umr ko'radi) almashtirilib turilmasa, uning ish faoliyati samarali bo'lmaydi.

Koshifiy ulug' ustozlar huzuriga borish odoblari haqida to'xtalib, ijozat bo'lmasa, ulug'lar huzuriga bormaslik, ular huzuriga kirganda izzat-hurmat bajo keltirish, salomdan keyin zarur bo'lmasa, so'z aytmaslik, gapirganda ehtirom - odobni saqlab, ovozini baland ko'tarmaslik, pir gapirayotganda, diqqat bilan eshitsin, toki qaytarib so'rab o'tirmaslik, suhbatdoshini ko'p maqtab duo qilmasin, toki bu riyo va til yog'malikka aylanmasin, gapirayotganda vaqtga e'tibor qilsin, toki noxush vaqtda ulug'larni ko'rishga bormaslik to'g'risida ham aytib o'tadi.

Buyuk Iskandar ustoz Arastuni huzuriga chaqirib "do'stim va dushmanimga qanday munosabatda bo'lay", deb so'radi. Shunda ustoz imkon qadar o'zingga dushman ottirma, agar u paydo bo'lsa ham ko'nglini olib do'stga aylantir, toki izzat hurmatini joyiga qo'yki u do'stlikdan voz kechmasin. Dushman oz bo'lsa ham g'ofil bo'lma, lashkaring ko'p bo'lsa ham, ko'pligiga ishonma, eng muhim ishlar muloyimlik bilan hal bo'ladi toki qiliching g'ilofidan chiqmasin, deb javob berdi.

XULOSA

Shuningdek, ustoz-shogird munosabatlarining yakuniy qismi bo'lgan ustozning o'z shogirdi belini bog'lash marosimini o'tkazishi, ta'lim yeki kasb-hunarni to'la egallashi munosabati bilan unga mustaqil ishslashga ruxsat bo'lishida ham o'zgacha kamtarlik, hikmat, tavoze' va tanilish borki, barcha shogirdlar ham bu marosim nasib etmasligi mumkin va barcha shogirdlar ham ta'lim-tarbiyaning bosqichlarini a'lo darajada o'ta olmasliklari mumkin ekan. Ana shundan marosimda ham ustoz shogirdini belini bog'layotganida ma'naviy rahnamolik qiladi va shogirdi qulog'iga ikkita og'iz so'z aytadi deydi. Bular nedir deb so'rasalar, ular do'stlarga mehribonlik, dushmanlardan hazar qilish, odil

bo‘lish, hasadni ko‘ngildan chiqarish, futuvvat shart-sharoitini bilish va unga amal qilish, javonmard bo‘lish, pirga murid tushish, muridga pir bo‘lish, balandga pastlik va pastga balandlikni bajo keltirish deb aytadi.

Keltirilgan fikrlarning o‘zi shogirlarga hayotda ustozи kabi ulug‘ va mohir bo‘lishiga umrbod pandu nasihat va to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatuvchi shior sifatida yordam berishiga dalil bo‘lib, shogirdlarning o‘z ustozlari ta’limotlarini avloddan – avlodga yetkazilishida jonkuyar bo‘lganligi, qattiq tartib-intizomga rioya etilganligi, ustozlarning nafaqat tirikliklarida, balki vafotlarida ham katta hurmatga ega bo‘lganligidan dalolat beradi.

Zamonaviy jamiyatda oliy ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy va tarbiya ishlarini olib borishimizda Husayn Voiz Koshifiyning shogidlarning maqomi va fazilatlari bilan birga ustozlarning ham maqomi, yaxshi fazilatlari, ilmlari, kasb-korlari va ta’limlarini sharqona axloqqa asoslangan tavsiyalari va qarashlari asosida zamonaviy madaniyat bilan integratsiyalashgan ijtimoiy muhitni yaratish orqali talaba yoshlar va professor-o‘qituvchilar orasida o‘quv va tarbiya jarayonlarini samaradorligini oshirishda foydalanilsa, maqsadli bo‘lar edi. Shuningdek, jamiyatimizda ustozlarning maqomi baland, shogirdlarning izzati o‘z o‘rnida hamda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda fazilatli xislatlarga ega bo‘lgan va halol kadrlarni yetishtirishda Husayn Voiz Koshifiyning ta’limoti ma’naviy-ma’rifiy hamda sotsiologik asos bo‘lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” va “Futuvvatnomai Sultoniy” asarlari. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, - 2019 yil, - 415 bet.
2. Komilov Najmiddin Tasavvuf.T.: Yozuvchi, 1996 y. 1-kitob, -76-b.
3. Qur’oni Karim. Abdulaziz Mansur tarjimasi.T.: “Islom universiteti”. 2001.128 oyatdan iborat bo‘lgan “Nahl” surasi. 274-B
4. Jaloliddin Rumi. Hikmatlari.T.: “Sharq”. -2008.229-bet.
5. Raxmatov Nuriddin Negqadamovich. Professor-o‘qituvchilar mehnat faoliyati va uning samaradorligini oshirishning nazariy va sotsiologik asoslari // Ijtimoiy tadqiqotlar jurnali, maxsus son. 2020 y. B. 127-140. <https://soci.tadqiqot.uz/index.php/soci/article/view/1253>
6. Рахматов Н. Н. ПРОФЕССОР-ЎҚИТУВЧИЛАР МЕҲНАТ САМАРАДОРЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ СОЦИОЛОГИК ОМИЛЛАР //Журнал Социальных Исследований. – 2021. – Т. 4. – №. 4.
7. Negkadamovich R. N. MODELING OF SOCIAL PROCESSES AFFECTING LABOR EFFICIENCY AND ITS IMPORTANCE //CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 25-28.

8. Azizovna A. Z. SPIRITUAL AND MORAL VALUES IN THE VIEWS AND ACTIVITIES OF AHMAD DONISH //European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2022. – T. 2. – №. 06. – C. 174-178.
9. Z.A. Akhmedova. (2022). REFORMIST VIEWS OF AHMAD DONISH (NINTH AND TWENTIETH CENTURIES). Oriental Journal of Education, 2(01), 174–180.
<https://doi.org/10.37547/supsci-oje-02-01-26>
10. Azizovna A. Z. CULTURE OF TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19 CENTURY //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2021. – T. 1. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
11. Намазова Н. Д. МЕСТО СОВРЕМЕННОГО ВУЗА В РАЗВИТИИ РЕГИОНАЛЬНОЙ ИННОВАЦИОННОЙ СИСТЕМЫ //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 24. – С. 916-925.
12. Намазова, Нодира Джумаевна. "Пути повышения качественных составляющих использования трудового потенциала малого предпринимательства." (2022): 197-206.
13. Neggadamovich R. N. THEORETICAL AND SOCIOLOGICAL BASES OF LABOR ACTIVITY OF THE PROFESSOR-TEACHER AND INCREASING ITS EFFICIENCY //Social Sciences. – 2020. – Т. 7.
14. Negkadamovich R. N. THE ROLE OF EDUCATION AND UPBRINGING IN THE FORMATION OF HUMAN SPIRITUALITY // "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM. – 2021. – С. 88-90.
15. Nekkadamovich R. N. ANALYSIS OF SOCIOLOGICAL PROBLEMS IN THE WORK OF PROFESSORS AND TEACHERS IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN THE PERIOD OF REFORM OF THE HIGHER EDUCATION SYSTEM IN UZBEKISTAN //Academicia Globe: Inderscience Research. – 2021. – Т. 2. – №. 05. – С. 530-536.
16. Sayfulloevna, Ashurova Marhabo. "Futuvvat (Chivalry)-The Basis of Moral Education." //Central asian journal of literature, philosophy and culture, 2.4 (2021): P. 39-43.
17. Ashurova Marhabo Sayfulloevna Spiritual and moral education issues in the works of eastern thinkers // European Scholar Journal (ESJ), Vol. 2 No. 5, MAY 2021, ISSN: 2660-5562, 20th May 2021.
18. Paxmatov H. H. THE IMPORTANCE OF A SYSTEMATIC APPROACH AND SOCIAL FACTORS IN ENSURING LABOR EFFICIENCY //Новый день в медицине. – 2020. – №. 4. – С. 133-136.
19. Ashurova Marhabo Sayfulloevna An Interpretation of the Moral Qualities in the Teacher-Student Relationship in the Legacy of Hussein Waiz Kashifi // European Journal of Innovationin Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 6| ISSN:2795-8612 P. 178-182.

20. Рахматов Н. Н. Теоретические и социологические основы трудовой деятельности профессоров-преподавателей и повышение ее эффективности //Общественные науки. – 2020. – Т. 7.
21. Chorieva M. A. SOCIO-POLITICAL, CULTURAL AND SPIRITUAL LIFE OF CENTRAL ASIA AND IRAN IN THE X-XI CENTURIES //Journal of Social Research in Uzbekistan. – 2022. – Т. 2. – №. 01. – С. 52-63.
22. Choriyeva M. A. THE LIFE OF THE AUTHOR OF THE GREAT POEM" SHAHNAMEH" //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2022. – Т. 2. – №. 03. – С. 9-14.
23. Alievna C. M. HISTORICAL SCIENCES //CUTTING EDGE-SCIENCE. – 2020. – С. 39.
24. Chorieva M. A., Kenjaeva X. P. THE MAIN DIRECTIONS OF DEVELOPMENT OF THE HISTORIOGRAPHY OF THE ZERAVSHAN VALLEY IN THE BEGINNING OF XX CENTURY //1000 kopii. – С. 23.